



## INNOVATSION TA'LIMNING YOSHLAR DUNYO QARASHIGA TA'SIRI

**Alimova Zebo Xamidullaevna**

t.f.n, professor,

Toshkent Davlat Transport Universiteti, O'zbekiston

**Niyazova Gulxayo Parpiena**

katta o'qituvchi,

Toshkent Davlat Transport Universiteti, O'zbekiston

**Eshmurodova Baxtigul Saidmurodovna**

fakultetei metodisti,

Toshkent Davlat Transport Universiteti, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7565562>

### ARTICLE INFO

Received: 16<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 20<sup>th</sup> January 2023

Online: 24<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

*innovatsion texnologiya, o'qituvchi va talaba, faoliyat, o'qitish jarayoni, ta'lim texnologiyasi.*

### ABSTRACT

*Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari hulosa qila olsalar ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.*

Hozirgi zamon yoshlari aqliy kamolotining rivojlanib borayotgan-ligi, ularning ilm o'rganishga chanqoqligi, mustaqil fikrlashi va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta'lim mazmuniga talabchanligi, o'qituvchining o'z ustida ishlashga, malakasini oshirib borishiga va ongini yanada rivojlantirishiga, ta'lim tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo'lib borishi keraligiga asosiy motiv bo'lib xizmat qiladi.

Yangilanayotgan ta'lim tizimida yakuniy natija, xoxlaymizmi, xoxla -maymizmi, bevosita ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshiradigan o'qituvchi mehnatining qanday tashkil etilishiga borib taqalaveradi. Ta'lim zimmasiga qo'yilayotgan ulkan vazifalar esa ta'lim berishga munosabatni, yondoshuvni o'zgartirishni taqozo etmoqda. Dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash, respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muxim va mas'uliyatli vazifadir.

Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axlokiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Buning uchun o'qituvchi o'z talabalarini fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi. O'qituvchi o'z talabalarini fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda

izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi.

Innovatsion jarayonga ikki xil qarash mavjud:

Birinchi qarashda, hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi.

Ikkinchi yondashuvda, alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birlamchi, raqobati va natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashidir. Shu jumladan ta'lim innovatsiyalari va innovatsion ta'lim texnologiyalarini loyixalash va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish ma'lum qonuniyatlarga asoslanadi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.


Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Innovatsion jarayonning bosqichlari quyidagicha:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilikning paydo bo'lishi (kashfiyot bosqichi) deb yuritiladi.
2. Ixtiro qilishlik - yangilik yaratish bosqichi;
3. Yaratilgan yangiliklarning amalda qo'llay bilish bosqichi;
4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiiq etish bosqichi;
5. Muayyan sohada yangilikka xukmronlik qilish bosqichi.

### **Pedagogning innovatsion faoliyati**



Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa,

o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari hulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh, va ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Bu yondoshuv o'quvchilarning egallagan nazariy bilimlarini tadbiiq etish bilan bir qatorda ularning o'z-o'zlarini rag'batlantirish orqali bilim va ko'nikmalar to'plashlariga sharoit yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. L.V.Golish «Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalash-tirish va amalga oshirish» Ekspress qo'llanma T. TESIS, 2001 yil.
2. B. Ziyomuxammedov, SH. Abdullaeva «Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot» T. «Abu Ali Ibn Sino» 2001 yil.
3. N. Sayidahmedov «YAngi pedagogik texnologiyalari» -T.: «Moliya»2003y.
4. Khamidullaevna, A. Z., & Akhmatjanovich, M. M. I. (2021). Environmental Safety in use Flammable Lubricants. Middle European Scientific Bulletin, 19, 83-85.
5. Khamidullaevna, A. Z., Parpiena, N. G., & Kabulovna, S. D. (2022). Study of the Work of the Boundary Layers of Lubricants Materials. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(12), 119-122.
6. N.Azizxodjaeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -T.: «Moliya»2003y.

INNOVATIVE  
ACADEMY